

# Khan Academy O'zbek

## MOLIYAVIY HISOBOT

April, 2020

Aziz do'stlar!

Siz Khan Academy O'zbek jamoasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha o'ninchi moliyaviy hisobotni o'qiyapsiz. Bizni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun sizdan juda minnatdormiz va ishimizni yanada shaffof qilish uchun har oyda rasmiy matbuot hisobotini nashr etib boramiz.


Sizning yordamingiz va sarmoyalaringiz tufayli biz, Khan Academy O'zbek tashabbuskor jamoasi, maqsadimizga yanada yaqinlashamiz va dunyoga mashhur Khan Academy bepul onlayn ta'lim platformasini mahalliyashtirish loyihasini amalga oshirish uchun qo'llimizdan kelganicha harakat qilamiz.

To'plangan barcha mablag'lar loyihani rivojlantirishga yo'naltiriladi.


**2020-yil aprel oyida loyihaga 2 203 416 so'm xayriya qilindi, 124 105 518 so'm sarflandi. Mazkur oyda qilingan xarajatlar quyidagi jadvalda keltirilgan:**

| Xarajatlar ro'yxati                   | summa<br>so'mda      |
|---------------------------------------|----------------------|
| Ma'muriy xarajatlar                   | - 14 619 440         |
| Bank xarajatlari                      | - 176 606            |
| Tarjima                               | - 27 901 808         |
| Tahrir                                | - 22 241 232         |
| Video                                 | - 18 876 347         |
| Marketing                             | - 2 715 680          |
| Fandreyzing (mablag' yig'ish)         | - 2 669 136          |
| Ta'mirlash va texnik xarajatlar       | - 1 500 000          |
| Aloqa xarajatlari (internet, telefon) | - 1 590 000          |
| Ijara haqi                            | - 5 600 000          |
| Soliqlar                              | - 25 110 768         |
| Boshqa xarajatlar                     | - 1 074 541          |
| <b>Jami</b>                           | <b>- 124 105 518</b> |

Xarajatlar foizi quyidagi aylana diagrammada aks etgan:



April oyida xarajatlarning 55,6 foizi (69 019 387 so' m) kontentni yaratishga, ya'ni matnli materiallarni tarjima qilish, ularni tahrir qilish va video darslarni yaratishga sarflandi:



**Bugungi kungacha loyihaga 1 603 165 350 so‘m va 76 595 AQSH dollari xayriya qilindi, 1 457 238 066 so‘m sarflandi.**

- Matni tarjima qilish jarayonini [bu yerda](#) ko‘rish mumkin.
- Video darslarni yaratish jarayonini [bu yerda](#) ko‘rish mumkin.
- Tayyor video darslar [YouTube](#) kanalimizga joylashtirilgan.

---

Vebsayt — <https://xanakademiya.uz>

Telegram kanal — <https://t.me/khanacademyuzbek>

Facebook sahifa — <https://www.facebook.com/KhanAcademyUzbek>

Instagram sahifa — <https://www.instagram.com/khanacademyuzbek>